BO‘LG‘USI BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARIDA KOMMUNIKATIVE KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH ZARURIYATI

Turaeva Dilafruz Rustamboevna
Kimyo Xalqaro universiteti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsenti
Saidaliyeva Diyora
Kimyo Xalqaro universiteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, kommunikativ kompetensiyani bo‘lagi bo‘lgan-pragmatik kommpetensiya, pragmatik kompetensiyaning vazifalari, og‘zaki nutqni rivojlantirish,muommala madaniyati,muloqotni yaxshilaydigan ko‘nikmalar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Pedagog, kommunikativ kompetensiya, kompetensiya, pragmatik kompetensiya, muloqot, muommala madaniyati, ijtimoiy moslashuvchanlik, notiqlik san’ati, ochiq yuzlilik.

Аннотация: В статье говорится о компетенции, коммуникативной компетенции, прагматической компетенции, входящей в состав коммуникативной компетенции, задачах прагматической компетенции, развитии устной речи, проблемной культуре, навыках улучшающих общение.

Ключевые слова: Педагог, Коммуникативная компетентность, компетенция, прагматическая компетентность, общение, проблемная культура, социальное внимание, искусство, оратор, открытость.

Abstract: The article talks about competence, communicative competence, pragmatic competence, which is part of communicative competence, tasks of pragmatic competence, development of oral speech, problem culture, skills that improve communication.

Key words: Pedagogue, Communicative competence, competence, pragmatic competence, communication, problem culture, social attention, art of public speaking, openness

Ma’lumki, ta’lim jarayoni samaradorligida o’qituvchi-o’quvchi o’zaro munosabatlari o’qituvchi faoliyati uslubiga va undagi bir qator individual, ijtimoiy-psixologik xususiyatlarga bog‘likdir. Hozirgi kunda yurtimizda bizga ko‘plab sharoitlar yaratib berilgan. Hammasi biz uchun. Ayniqsa o‘sib kelayotkan yoshlarni bilim olishiga judayam katta e’tibor qaratilayapti. Axborot texnologiyalari,turli yo‘nalishdagi o‘quv markazlari qurilmoqda.Maktablarda fanlar chuqur o‘zlashtirilib, ularni hozirdan kelajakdagi kasbiga tayyorlash,olimlar yetishib

chiqishi ilgari surilmoqda.Bunda biz pedagoglarning roli juda katta. Davlat statistika qo‘mitasi O‘zbekistonda faoliyat yuritayotkan pedagog o‘qituvchilar soni haqidagi ma’lumotiga ko‘ra, 2022-yilning 1-yanvar holatiga respublikadagi ta’lim tashkilotlarida jami 685,4 ming nafar pedagoglar faoliyat yuritmoqda.Shulardan 510,0 nafari –umumta’lim muassasalarida [1].Ularga nafaqat bilim beramiz, balki, ijtimoiy hayotga tayyorlaymiz.Mana shuning uchun biz bugun kommunikativ kompetensiya nima ekanligi,uning vazifalari haqida ko‘proq ma’lumot beramiz. Kompetensiya nima? (lot.competo-erishyapman, munosibman, loyiqman) –u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba. O‘qituvchi - muallimlarning shaxsiy ijtimoiy sifatlariga azaldan e’tibor qaratib kelingan va har bir zamon talabidan kelib chiqib, pedagogga qo‘yiladigan talablar takomillashib, murakkablashib boravergan. Kompetensiya-bilim, ko‘nikma, malaka, qadriyat, boshqa shaxsiy sifatlar, ijobiy natijalarni faoliyatda ko‘rinishi.

Hozirgi kunda kompetensiyaning ko‘plab turlari bor shulardan biz bugun komunikativ kompetensiya haqida gaplashamiz. Kammunikatsiya o‘zi nima? Kommunikatsiya-muloqotda insonlar ma’lumotlar almashishadi.U tizimli zanjir.Gapirish harakatlari yoki maqsadli va ratsional xulq atvor turidir. Kommunikativ kampetensiya Pragmatik kompetensiyani o‘z ichiga oladi.

Pragmatik kompetensiya-bilimlar to‘plami gapni tuzish qoidalari,ularni matnga(nutqqa) birlashtirish. Turli kommunikativ vazifalarni amalga, oshirish uchun gaplardan foydalanish qobilyati.Suhbatdoshlarning o‘zaro ta’sirini o‘ziga hos xususiyatlariga muofiq suhbatlarni uyushtirish qobilyati.Bu kommunikativ va pragmativ maqsadga muvofiq so‘zni to‘g‘ri ishlatish qobilyatida ifodalanadi [2]. Albatta inson muloqotka kirar ekan to‘g‘ri ma’lumot berishni va olishni hohlaydi. Charliz Uilyam Morris tomonidan 20 asrning 30 yillarida “Pragmatika” atamasi semiotika fanining bir bo‘lagi sifatida kiritilgan.Xo‘sh, semiotika qanday fan edi? Semiotika (yun. semeiotikos — belgilar haqidagi ta’limot), semiologiya — 1) axborot, ma’lumotlarni saklash va uzatish uchun xizmat qiladigan belgilar va belgi tizimlarining umumiy xususiyatlarini o‘rganadigan fan sohasi; 2) u yoki bu obyektning 1ma’nodagi S. nuqtai nazaridan o‘rganiladigan tizimi (mas, muayyan film yoki badiiy asar S.si, muayyan xalqdagi muomalamurojaat S.si va boshqalar).[3]

Kommunikativ kompetensiya quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1.O‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, ijtimoiy moslashuvchanlik, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;

2.O‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish;

3.Muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o‘z pozitsiyasini himoya qila bilish.

Har bir inson o‘z fikrini og‘zaki va yozma holda aniq bayon qila oladi deb ayta olmaaymiz chunki shunday insonlar bor og‘zaki nutqi yaxshi

rivojlanmagan,yoki,aksincha. Demak, biz nutqimizni rivojlantirishimiz,adabiy til me’yorlariga amal qilgan holda yozishni ham o‘rganishimiz kerak.Nutqimizni rivojlantirishda bizga nimalar yordam beradi?O‘z ustimizda ishlash,auditoriya oldida nutq so‘zlashimiz,qo‘rquv va hayajonni yenga olishimiz.buning uchun ko‘plab mashhur notiqlarni kitoblarini mutaola qilishimiz, o‘z ustimizda ishlashimiz kerak.

“Mashhur insonlarni hayot yo‘li bilan tanishib chiqar ekansiz, ular hammalari bir ishni qilishganligini-MASHQ QILISHGANINI ko‘rasiz”[4].

Agar siz notiqlik san’atiga qiziqib qolsangiz,ishonavering bu sizga juda foydali bo‘ladi. Bordiyu notiqlik san’atini egallash orzusidan kechmoqchi bo‘lsangiz, Linkolinning rasmi tushurilgan beshdollorlik banknotni olib,u nimalarni boshidan o‘tkazganini eslang. Biz bilamizki Avram Linkolin Amerikaning 16-prezidenti, u umr bo‘yi shaxs erkinligini birinchi o‘ringa qo‘ygan [6] Amerikada quldorlikni yo‘q qilgan va odamlarni sevimli notig‘i.

Bazi insonlar bor ular o‘z fikrini oddiy qog‘ozga ham yozib bera olmaydilar.Bunga sabab turlicha bo‘lishi mumkin.Albatta notiqlik san’atini gapirganimiz kabi yozma nutqga ham Alohida e’tibor berishimiz kerak.Endi ijtimoit moslashuvchanlikka ham to‘htalib o‘tsak. Ijtimoiy moslashuvchanlik bu shaxs va tabiat yoki ijtimoiy muhit o‘rtasidagi uyg‘unlik holati.

O‘zaro muloqotda muommala madaniyatiga amal qilish. Muloqot o‘zi nima? Muloqot- bu odamlar o‘rtasidagi aloqa, buning natijasida odamlarning bir biriga bo‘lgan ta’siri paydo bo‘ladi. Muloqot barcha tirik jonzotlarga xosdir, lekin odam darajasida u eng takomillashgan shakllarga ega bo‘ladi, nutq vositasida anglanadi. Muloqotda quyidagi nuqtai nazarlar ajratiladi: mazmun, maqsad va vositalar. Biz inson ekanmiz-madaniyatli bo‘lishimiz kerak! Odamlar bilan muommalada bosiq,samimiy bo‘lishimiz,tilimizni hurmat qilgan holda buzmasdan gaplashishimiz maqsadga muofiq bo‘ladi.Buning uchun biz bolalarimizga so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rgatishimiz, katta-yu kichikka hurmatda bo‘lishlikni oiladan boshlashimiz o‘rgatishimiz kerak.Masalan,biz bolalar bilan gaplashganimizda ularga o‘zlarini tilida erkalab so‘zlarni buzib gapiramiz.Natijada ular o‘sha so‘zni huddi shunday talaffuz qilishadi. Do‘stlarimiz bilan telegrammalar yozishayotganda ham so‘zlarni qisqartirib yoki harflarini tushurib yozamiz bu esa o‘z ona tilimizga bo‘lgan hurmatsizligimiz. Muloqot jarayonida biz atrofimizdagilarga ochiq yuzlilik bilan muommalada bo‘lsak,suhbatimiz ham samimiy bo‘ladi.Bu haqida buyuk Amir Temur bobomiz shunday deganlar: “Ochiq yuzlilik,rahm-shavqat bilan xalqni o‘zimga rom qildim.Adolat bilan ish yurirtib,jabr-zulmdan uzoqroqda bo‘lishga intildim” [6] -деб таъкидлайди Амир Темур.

Sizning o‘rtoqlaringiz orasida siz hurmat qilgan yaxshi muloqot qiladigan inson bormi? Ularni zimdan kuzating.Yaxshi hislatlarini o‘zingizga oling.

Muloqotni yaxshilaydigan 4 ta asosiy ko‘nikma tarkibiga:

Mashhur tinglovchiga aylanish.

Og‘zaki bo‘lmagan belgilarga e’tibor berish.

O‘zinini nazorat qilish va ishonish.

Pragmatik kompetensiya vazifalari:

1.Gapni tuzish qoidalarini bilish,ularni matnga birlashtirish(Nutq kompetensiyasi)

2.Turli kommunikativ funksiyalarni bajarish uchun so‘zlardan foydalanish qobilyati(Funksional kompetensiya)

3.O‘zaro ta’sir sxemalariga muvofiq gaplarni izchil tuzish qobilyati(Nutqning sxematik qurilishining kompetensiyasi).

O‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, progmatik kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning bir bo‘lagi.Siz odamlar bilan muloqot qilishni o‘rganishingiz va ularning suhbatdoshini idrok etishi uchun o‘z fikrlaringizni yanada aniq va aniq ifodalashingiz mumkin. Turmush o‘rtog‘ingiz, farzandlaringiz, xo‘jayiningiz yoki hamkasblaringiz bilan aloqa o‘rnatishga harakat qilyapsizmi, muloqot qobiliyatingizni yaxshilashingiz mumkin, bu sizga boshqalar bilan munosabatlarni o‘rnatishga, ishonch va hurmatni mustahkamlashga, shuningdek, eshitilgan va tushunilganini his qilishingizga yordam beradi. Muloqot - ijtimoiy psixologiyaning asosiy kategoriyasidir[5]. O’qituvchi-o’quvchi orasidagi holat o’zaro shaxslararo munosabat ekanligini A.A.Rean va Y.L. Kolominskiy ta’kidlab, muloqot nazariyasi ham pedagogik ham ijtimoiy, ham guruhiy psixologiyaning asosini tashkil etishini isbotlaganlar. Xulosa qilib oladigan bo‘lsak kommunikativ kompetensiya mana shularni o‘zida jamlaydi va hayotimiz davomida uni rivojlantirib borishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Xabar.uz Statistika.uz 01.10.2022

2. Abduvahob Madvaliyev,Yo‘ldosh Solijonov.O‘Zme.Birinchi jild.Toshkent,2000-yil

3. A.I.zayev. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma’lumotlaridan foydalanilgan.

4. Deyl Karnegi.“Inson qanday qilib o‘zida ishonch hosil qila bilishi va omma oldida bapira turib,odamlarga qanday ta’sir o‘tkaza bilishi haqida”,”Donish chirog‘i” nashriyoti 2018-yil.73-b.

5. Тураева Д. Р. ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СТИЛЕЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПЕДАГОГОВ //Приоритетные направления развития спорта, туризма, образования и науки. – 2021. – С. 555-560.

6. ”Harobadan chiqqan mashhurlar-2”.”Yangi asr avlodi”,2014-yil.72-b.

7. ”AMIR TEMUR O‘GITLARI” Toshkent “Navro‘z”1992-yil.20-b.